# ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 4-son

## Ilmiy-metodik jurnal
## Научно методический журнал
## Scientific and Methodical Journal

ISSN
3093-9089



Buxoro - 2026

# ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

***№ 4-Son 2026-yil***

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan**

**BOSH MUHARRIR**:
**Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li**
**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**
**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Кулешов Валерий Владимирович** - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

**Andriyenko Yelena Vasilyevna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorvich** - Texnika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich** - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi mudiri).

**Zaripov Lochin Rustamovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

**Xamidov Akmal Amrulloyevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

**Nazarov Akmal Mardonovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha birinchi prorektor).

**Safarov Dilmurod Xalimovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari)

**Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi mudiri).

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi professori).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri)

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti).

**Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti).

**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

**Mas’ul kotib:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Akhmadov Nazirjon Rahmat o'g'li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Valeriy Vladimirovich Kuleshov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

**Elena Vasilyevna Andrienko** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

**Tatyana Aleksandrovna Romm** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

**Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich —** Doctor of Technical Sciences, Professor.

**Shirinboy Sharofovich Olimov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the "Pedagogy" Department).

**Lochin Rustamovich Zaripov** — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

**Khamidov Akmal Amrulloyevich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Akmal Mardonovich Nazarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

**Dilmurod Xalimovich Safarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

**Shavkat Shuhrat o'g'li Rustamov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the "Psychology" Department).

**Feruz Furqatovich Ganjiyev** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the "Psychology" Department).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich —** Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Dilafruz Tuymuratovna Ismatova** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

**Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

**Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

**EXECUTIVE SECRETARY:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**

**Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.**

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**

**Кулешов Валерий Владимирович** — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

**Андриенко Елена Васильевна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

**Ромм Татьяна Александровна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

**Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович** — доктор технических наук, профессор.

**Олимов Ширинбой Шарофович** — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

**Зарипов Лочин Рустамович** — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

**Хамидов Акмал Амруллоевич** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Назаров Акмал Мардонович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

**Сафаров Дилмурод Халимович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

**Рустамов Шавкат Шуҳрат угли** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

**Ганжиев Феруз Фуркатович** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

**Косимов Убайдулла Ахророович —** доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Исматова Дилафруз Туймуратовна** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

**Мухлисов Содикжон Саиджонович** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

**Тилавов Мухтор Хасан угли** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**

**Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли** — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

# MUNDARIJA:


| T/R | Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Bet |
|---|---|---|---|
| 1 | *G'AYBULLAYEV ALISHER ASADOVICH* | MAKTAB UQUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI | 11 |
| 2 | *YOQUBJONOVA SEVARA BAHODIR QIZI* | PRESERVING THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE IN UZBEK TRANSLATION (BASED ON LEE KUAN YEW'S FROM THIRD WORLD TO FIRST) | 17 |
| 3 | *IBODULLOYEV NURALI SHERALIYEVICH* | PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARAYONIDA SAMARDORLIGI VA METODOLOGIK ASOSLARI | 28 |
| 4 | *AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA, NARZULLOYEVA JASMINA JO'RABEK QIZI* | IJTIMOIY TARMOQLARNING O'SPIRINLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI | 31 |
| 5 | *QAZOQOV MUXRIDDIN HOSHIM O'G'LI* | ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ | 36 |
| 6 | *SAIDOVA RAYHONA AMON QIZI* | BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI | 39 |
| 7 | *NISHONOVA ZUXRA VOXIDJON QIZI* | THE DEVELOPMENT OF THE PHONICS APPROACH AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS | 42 |
| 8 | *SADULLAYEVA SEVARA G'AYRADJONOVNA* | TALABALARDA UYQUSIZLIK VA UNING SALOMATLIKKA TA'SIRI | 46 |
| 9 | *SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI* | BAHOLASH AMALIYOTIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI | 50 |
| 10 | *MAMATOV ALIMARDON SOTVOLDI O'G'LI, SHOMUROTOV ZOXID ZOKIROVICH* | PROFESSIONAL DEFORMATION AND ITS CAUSES | 54 |
| 11 | *UBAYDULLA AXROROVICH KOSIMOV* | KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXBOROT QABUL QILISH MODALLIGINING AHAMIYATI | 59 |

| T/R | Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Bet |
|---|---|---|---|
| 12 | *XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICH* | KASB TANLASHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘RNI | 64 |
| 13 | *JAXONOV JAVLONBEK JAMIL O'G'LI* | O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 68 |
| 14 | *OSTONOVA LOBAR RASHID QIZI* | THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS' LEISURE TIME | 71 |
| 15 | *SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI* | MUSTAQIL FAOLIYATNI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR | 76 |
| 16 | *HAMROYEV JAMSHID O'G'LI TEMURBEK* | MIGRATSIYA BILAN BOG‘LIQ IJTIMOIY SHAROITLARDA O‘SMIRLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV STRATEGIYALARI. | 79 |
| 17 | *OBIDOVA ZILOLA FOZILOVNA* | YOSHLAR ORASIDA YUKSAK HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI | 83 |
| 18 | *QOSIMOVA SARVINOZ BAXTIYOROVNA* | YOSHLAR ONGIDA MANIPULYATSION TA'SIRLARGA QARSHI IMMUNITETNI HOSIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. | 86 |
| 19 | *SHODIYEVA UMEDA SHUHRAT QIZI* | BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 92 |
| 20 | *UMARALIYEVA MUNOJATXON MASHRABOVNA, IBRAGIMOVA MUHLISA ISMOILJON QIZI* | THE DIFFICULTY OF TRANSLATING HUMOR AND JOKES FROM ENGLISH INTO UZBEK | 97 |

***Xamidov Akmal Amrulloyevich***
*Buxoro viloyati PMM direktori, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).*

# KASB TANLASHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING Oʻ‌RNI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Uchinchi renesans davrida, yosh avlodning kasb tanlashida shaxs tipologiyasiga e’tibor berish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, ta’lim-tarbiyaning oʻziga xos pedagogik- psixologik jihatlaridan samarali foydalanishga doir tavsiyalar berilgan.*

***Kalit soʻzlar.*** *Kasb tanlash. tipologiya, dunyoqarash,e’tibor, shaxsiy fazilatlar.*

***Хамидов Акмал Амруллоевич***
*директор Бухарского областного центра педагогического мастерства (ЦПМ), доктор философии (PhD) по педагогическим наукам.*

# РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ

***Аннотация:*** *В данной статье в период Третьего Возрождения в выборе профессии подрастающего поколения даются рекомендации обращать внимание на типологию личности, развивать личностные качества, эффективно использовать уникальные педагогические и психологические аспекты образования.*

***Ключевые слова;*** *Третьего Возрождения Мировоззрение, типология, универсальная культура, творческая смелость.*

***Akmal Amrulloyevich Xamidov***
*Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence (CPE), Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.*

# THE ROLE OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN CAREER CHOICE

***Abstract:*** *In this article, during the period of the Third Renaissance, in choosing a profession for the younger generation, recommendations are given to pay attention to the typology of personality, develop personal qualities, and effectively use the unique pedagogical and psychological aspects of education.*

***Key words:*** *career choice, personality typology, personal qualities, worldview, motivation, professional orientation.*

Mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan ularni jahon standartlari darajasiga koʻtarish - ijtimoiy taraqqiyotni roʻyobga chiqarishdir. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, oʻz kasbining fidoyi kishisini kamol toptirish zarur. Toki ular davr talablariga ogʻishmay javob beradigan, dunyoqarashi keng, yuqori malakali, xotirasi barqaror, yangiliklarga intiluvchan, izlanuvchan kasbiy xodimlar boʻlib voyaga yetishsin. Shu oʻrinda oʻrta maktab oʻquvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ularning kasb tanlashlarida muhim omil ekanligini eslab oʻtish maqsadga muvofiqdir.

Koʻpchilik oʻquvchilar ta’lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, oʻzlari yoqtirgan kasb-hunar haqida oʻylaydilar. Ularni kasb-korga boʻlgan qiziqishlari, moyilliklari, havaslari, xohishlari, ezgu-niyatlari yoki shunday ehtiyojlarining tugʻilishi jarayonida shaxsiy fazilatlar namoyon boʻla boshlaydi. Shuningdek, oʻquvchilarni individual tipologik xususiyatlari, jumladan yoshi va jinsiga qarab har biri oʻziga xos, oʻz imkoniyatlarini oʻzi baholash orqali ma’lum bir kasbga boʻlgan mehr kurtaklari uygʻona boshlaydi.Demak, oʻspirinlarda bilimlardoirasi va dunyoqarashining kengayib borishi natijasida shaxsiy fazilatlarham shakllanib boradi. Shularni hisobga olgan holda toʻgʻri kasbga yoʻnaltirish va bu jarayonning toʻlaqonli amalga oshishida kattalarning psixologik bilim va hayotiy tajribalarining oʻrni beqiyosdir.

Jumladan, kasb tanlashda shaxsning sezgirligi muhim ahamiyatga ega. Sezgilar deganda, insonlarning tashqi ta’sirni qabul qilish qobiliyati va shunday ta’sirdan olingan his – tuygʻu, bilish

jarayonining sodda va boshlang'ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgirlik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Insonning ko'zi yarim millionga yaqin rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo'lishi ko'pchilik kasb - hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun o'quvchilar muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, faoliyatda sustlikka yo'l qo'ymaslik zarur. O'spirinlarning ruhiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirish ularning sezgirligi, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta'sir etayotgan ob'ektni mavjud narsa va hodisalarning inson ongidagi in'ikosi idrok deb ataladi. Idrok verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo'lib, hodisalar, narsalar va ob'ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

O'spirinlarning o'qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb-hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur'ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo'llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida o'rin tutadi. Ba'zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo'lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrof muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog'liq bo'lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati - xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq-atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim xislat bo'lib shaxsiy fazilatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va o'z navbatida ko'rgazmali, obrazli, so'z - mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplari mavjud bo'lib, yoshlarni kasbga yo'llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.O'quv materiallarining turli tumanligi xotirani o'tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki kasb-hunarning xilma-xilligi xotiraning o'tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o'ziga xos jihatlari kasb-hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli-tuman kasblar to'g'risidagi ma'lumot axborotlarni o'zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida ishning samarali bajarilishini ta'minlaydi.Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o'tkir bo'lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in'ikosi bo'lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo'lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, butun olamni o'ziga bo'ysundirish uchun imkon tug'diradi. Fikr yuritish orqali barcha bilimlar o'zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

O'spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni yechishga o'rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarga muammoli, jumboqli topshiriqni yechish bosqichlarini ta'riflab berish joiz. Bunda qo'yilgan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni yechish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo yechiladi, uning to'g'ri yechilganligi tekshiriladi va hokazo.

O'quvchi tafakkurining mustaqilligini, ixchamligini, tezligini, mantiqiyligini, izchilligini, o'tkirligini, teranligini, mahsuldorligini oshirishga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti yetishmaydigan, yo bo'lmasa o'zaro mantiqan bog'lanmagan topshiriq hamda

masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo‘yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo‘lgani ma’qul.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil.

O‘spirinlar hayotini fantaziyasiz tasavvur etish qiyin, albatta. Xayolot (fantaziya) ob’ektiv voqelikni inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o‘y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Bironta, hatto eng chalkash faraziy tasavvur ham shaxs aqlining faqat sub’ektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob’ektiv voqelik aks ettirilgan bo‘ladi. O‘quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yangilik yaratish yo‘llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o‘ylamasdan yashay olmaydi. Shuningdek, kasb tanlayotgan o‘quvchi ham ma’lum muddat o‘zini shu kasbning mohir ustasi, katta mutaxassis sifatida faraz etishi yoki shirin xayollar og‘ushida sayr etishi tabiiydir.Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol surish, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma’naviy dunyosi to‘g‘risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxiy bo‘ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni o‘spirin faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlari asosida shakllangan shaxsiy fazilatlarga tayanib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishiga, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini o‘z vaqtida tuzatishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlariga ham e’tiborni qaratish joiz. Chunki, shaxsning xulq - atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa xislatlari kasb tanlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning ruhiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o‘tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat dinamikasi temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va shaxsning ruhiy holatiga bog‘liqdir. Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qat’iy nazar, mas’uliyatni his etsa, o‘z kasbida g‘ayrat bilan ishlaydi, biroq kasbini yoqtirmasa, aksincha, buni aksini kuzatishimiz mumkin.

Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo‘lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to‘rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), flegmatik (bo‘shang, og‘ir), melanxolik (g‘amgin), xolerik (qiziqqon).Temperament shaxsning bama’niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e’tiqodi, qiziqishlari va hokazolarini ko‘rsatuvchi belgi emas.

Hozirgi davrda temperament tiplarining psixologik ta’rifi senzitivlik, reaktivlik, aktivlik, dinamiklik, ta’sirlanish tezligi, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o‘ttizdan ortiq (ba’zan qirqdan oshiq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstravert va introvert tiplari ko‘proq qo‘llanadi. Shaxsni kasbga yo‘llash jarayonida temperamentning psixologik ta’rifi berilishi shart.Shu nuqtai nazardan kelib chiqib yuqorida keltirib o‘tilgan temperamentning asosiy to‘rtta tipiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Psixologiya fanida shaxsning hulq-atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanib, bu xususiyatlar to‘rt guruhga ajratib o‘rganiladi:

1. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;
2. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas’uliyatlilik va hokazo;
3. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;

4. O'z-o'ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va hokazo.

Xulq-atvor xususiyatlarning shakllanishida o'qish va mehnat faoliyatli yetakchi rol o'ynaydi, chunki o'qish va mehnat jarayonida qo'llaniladigan individual usullar xulq-atvorga ta'sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko'pgina xususiyatlar o'zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo'ladi. Xulq-atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Inson umrining oxirigacha o'z xatti-harakatlarini boshqarib, xulq-atvorini o'zi barqarorlashtirgan bo'lsa, kasb-hunar tanlashga shunchalik oqilona va qatiyatlik bilan yondoshiladi.

O'quvchilar qobiliyati, layoqati ta'lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste'dod deyiladi. Iste'dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalga oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan xislatlardan bittasidir).

O'spirinlarning qanchalik iste'dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e'tibor berish talab etiladi.

1. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;
2. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga ehtiyoj sezishi;
3. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug'ma bo'lmaydi (tabiiy alomatlari, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbaalar ta'siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a'zolari vaharakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo'llashda ularning his-tuyg'ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki o'quvchilarning his- tuyg'usi, kayfiyati, stress va ob'ektiv holatlari o'rganilmasa va e'tiborga olinmasa, ko'zlangan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dagi ulug'vor maqsadga erishib bo'lmaydi. Buning uchun iste'dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o'qitish, sara shart-sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta'limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo'llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlari va his - tuyg'ularini, layoqat, iste'dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo'yiladigan talablarga moslashishga imkon beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.U.A. Kosimov. ―Improving the system of professional development is a equirement of the period‖, AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH, ISSN: 2690-9626 Vol. 1, No.6, November-December 2020, pages 31-39

2.U.A. Kosimov. International Journal of Advanced Academic StudiesPeer Reviewed Journal, Refereed Journal, Indexed Journal P-ISSN: 2706-8919, E-ISSN: 2706-8927, Impact Factor: RJIF

3.12, "The role of determining the representative system of pupils in increasing educational efficiency", pages 218-220 IJDIIE Volume: 02 Issue: 01 | January 2021 197 Published by ― INTER SCIENCE" http://ihm.iscience.uz/index.php/ijihm

4.U.A. Kosimov. Journal of Psychology, issue 2 of 2019: ―Methodof teaching based on NLP the types of perception of pupils‖, pages 23-28

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
**Elektron manzil:** aspec.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

***“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.***
***Buxoro, 2026. № 4-Son.***